IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

XORIJIY TILLARNI O'QITISH VA UNING XUSUSIYATLARI

[1]Artikova Nargiz Shuxratovna
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nargisartikova1982@gmail.com
[2]Abduvosiyeva Zuhra Isroil qizi,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi
E-mail: zuhraabduvosiyeva@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish xususiyatlari yoritib berilgan.Xususan, xorijiy tillarni o 'qitishda yangi metodika va dars ishlanmalarini joriy etish va shu bilan birga o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o 'tishning noan 'anaviy usullarini joriy etish ko'zda tutilgan .

Kalit so'zlar: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limiy o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari, ingliz tilida so'zlardan foydalanib turli xil o'yinlar o'ynash , rol o'yinlar, qo'l mehnati, terminlardan foydalanish.

Kirish.

Biz bilamizki, fan va texnika, san'at, sayyohlik, xalqaro aloqa va xalqaro ishlarda keng qo'llanilayotgan tillar ilg'or tillar bo'lib, bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlarida chet tili sifatida o'qitilishi tilning faqat o'z davlati chegaralaridagina emas, balki boshqa millatlar va madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lishini, uni samarali tarzda tan olinishi va o'rgatilishi uchun ko'proq o'rganilishini anglatadi. Xorijiy tillardan biri bu ingliz tili bo'lib , uni xalqaro dunyo tili deb tan olinib dunyodagi ko'p davlatlarda birinchi va ikkinchi til sifatida qo'llaniladi. Zero, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy ta'lim metodlari ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Maqolada shu xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Xorijiy tillarni necha yoshdan o'rgangan ma'qul

Mening fikrimcha, bola aqlini tanib, so'zlashni boshlar ekan uning tilga bo'lgan ehtiyoji o'z-o'zidan namoyon bo'la boshlaydi. Bolaning taxminan 5-6 yoshdan boshlab xorijiy tillarni o'rgangani ma'qul deb o'ylayman. Chunki bu yoshda qiziqish va xohish ko'proq bo'ladi . Xotira ham bo'sh bo'ladi va eng yaxshi fikrlarni va eng yaxshi mavzularda qaysidur ma'noda o'z fikrlarini qo'rqmey va uyalmey bayon eta oladi. Bu yoshida bolaga nimani o'rgatilsa shuni qabul qiladi va shuni ayta oladi 5 yosh bolaning so'z boyligi 2500-3000 ga yetadi. Tildagi barcha harflarni bemalol ayta oladi. Qiyin iboralarni qo'llab, o'z fikrini, istagini ifodalay oladi. So'zdagi harflar tartibini almashtirmay gapiradi. 5 yoshdan 7 yoshgacha-7 yoshga kelib bolaning so'z boyligi 3500 ga yaqin bo'ladi. Bunda taassurotli so'zlar soni ko'payadi. Bolaning tilga e'tibori oshadi. Atrof-muhitni so'z bilan baholay olish qobiliyati shakllanadi. Bolaning psixologik holati maktabga tayyorlanadi. Bu yoshda bolaga she'rlar va yangi so'zlar o'rgatish, ertaklar va inglizcha multfilimlar ko'rsatish maqsadga muvofiq. Chunki bola bu vaqtda ko'rgan va o'rgangan narsa va voqealiklarni tez o'rganadi va esda saqlab qoladi. Bundan tashqari, dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola chet tilini oson o'zlashtirishishi bo'yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o'rganadi shuning uchun xorijiy tilni qollanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilshini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davr bola rivojlanishning eng muhim davri ekanligi

isbotlangan. Shunigdek uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday xolatda xam bolaning psihologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

Bolaning tayyorligi

Har qanday bola alohida shaxs individ hisoblanadi, tabiiyki ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va yaxshi bo'lmagan natijalarga olib keladi. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologo-pedagogik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklarini va serhafsalaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur . Ota ona o'z farzandini har tomonlama yetuk bo'lishini istaydi va ko'p xollarda bolaning psixologik va fiziologik tayyorligini xisobga olmasdan unga turli fanlardan yuklamalar berishga, til o'rgatishga yoki sport mashg'ulotlariga jalb qilishga xarakat qiladilar. Aksar xolatlarda ota onalar kutilgan natijaga erisha olmagach, bolaga tanbeh berish yoki tengdoshlariga qiyoslash orqali bolaga ta'sir o'tkazishga xarakat qiladilar. Ammo bu ikki urinish ham bolaning o'rganishga bo'lgan rag'batini susaytiradi va atrofdagi narsalarga bo'lgan qiziqishini so'nishiga sababchi bo'lib qoladi. Bunday ko'ngilsiz holatlarni oldini olishda ota ona va tarbiyachilarning roli beqiyosdir. Bolaning erkin fikrlashga o'rgatish, undagi qiziquvchanlikni va atrofni o'rganishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish, bolaning tasavvurini boyitish, ijodkorligini yuzaga chiqarishni eng oson va maqbul yo'li bu o'yindir. Bolalar o'ynashganda ular o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq qiladilar, farazlarni sinovdan o'tkazadilar, zaruriy ko'nikmalarni egallaydilar, o'z tasavvurlaridan foydalanishadi va o'zlarining dunyolarini kashf etishadi Bolaning maktabga tayyorgarligining psixologik xususiyatlari Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning yaslidan bog'chaga o'tishlariga qaraganda murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi. Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada "katta" deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana «eng kichkinalar» qatoriga tushib qoladilar.Bolalarning maktabga o'tishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi hayotga har tomonlama tayyorlash kerak. Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har tomonlama tarbiya berish, ularniig taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'ptasida ma'lum izchillik bo'lishini talab qiladi.Bog'chada bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va ahloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo

nazarda tutilib, o‘tkaziladigan turli didaktik mashg‘ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, xayol hamda tafakkurlari, irodalari tizimili tarzda taraqqiy ettirib boriladi. Bolalarni maktabdagi o‘qish jarayoniga tayyorlashda ularning nytqini o‘stirish juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun katta guruh bolalarini maktabdagi o‘qishga tayyorlashda o‘z ona tillarini yaxshi o‘pganishlariga, ya’ni so‘z boyligini orttirishga, to‘g‘ri talaffuz va to‘la hamda to‘g‘ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o‘stirish asosida olib borilishi kerak.Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma bog‘chalardagi maktab yoshiga to‘lgan bolalar maktabdagi o‘qishga bab-baravar tayyor bo‘lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o‘qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko‘pinadi. Bu o‘pinda shunday bir savol tug‘iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o‘qishga tayyor deb hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o‘qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo‘lishi hamda ma’lum darajada aqliy jihatdan o‘cran bo‘lishi lozim. Biroq u hayotda shynday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo‘lgan va hattoki yozish hamda o‘qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o‘qishga tayyor bo‘lmaydilar. Ular maktab va o‘qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo‘lmasalar ham, maktabda o‘qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o‘qish jarayoni uchun ma’lum darajada aqliy jihatdan o‘cran bo‘lish maktabda dastlab o‘qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o‘qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham mavjud. Boshqa bir olimlar, bolaning o‘qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deydilar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yishdan boshqa narsa emas.Yetti yoshga to‘lish davri bolalikning tugash davriga to‘g‘ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o‘z-o‘zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga to‘lgan davridan boshlab tizimli sur’atda o‘qitishga o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O'yinning ahamiyati

Bola tabiatan juda qiziquvchan bo’ladi va u atrof olamni o’rganish uchun barcha xis tuyg’ularini ishga soladi. O’yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg’uloti bo’lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko’nikmalar o’yin vositasida tanishtirib borilsa, ko’nikmalarni o’zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, uning ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O'yin bolani o’ziga bo’lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko’mak beradi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o’yin orqali bolalar ta’lim oladilar o’z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta’limiy o’yinlar musiqa asboblarnini cholish, qo'shiqlar kuylash, she’r aytish, raqsga tushish, o'yin o’ynash, videolar tomosha qilish, qo’l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko’rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o’yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir. Bola bu mashg’ulotlar orqali o’ziga turli xil ko’nikmalar xosil qiladi. Masalan, fikrlash , baxslashish, gapirish va tinglash ko’nikmalarini hosil qiladi. Va shuningdek, bu yoshda bolalar til o'rganishga bo’lgan

qiziqishlarini shu o’yinlar orqali ko’rsata oladi va qiziqishlari yanada ortib boradi.
Bolalar ham o’ynaydilar, ham rivojlanadilar, ham o’rganadilar.
Plastilin bilan o'ynashda bolalar “mayda metorika” mahoratini rivojlantiradilar. Bolalar plastilinda shakllar yasaganda ko’z va qo’l faoliyati muvofiqlashadi hamda qo'l va barmoq mushaklari musthkamlanadi. Bu o’z navbatida yozuv mahoratini shakllantirishdan avvalgi eng zarur bo’lgan ko’nikmalardir, chunki mustahkam mushaklar kuchi hamda “ko’z–qo’l muvofiqlashuvi” (зрительно-моторная координация), bolalarga yozuv vositalarini to'g'ri ushlab turish va ulardan oqilona foydalanishida yordam beradi. Shuningdek plastilin bilan o'ynash orqali bolalar predmetlarning rangi, shakli va tuzilishi kabi belgilarini ham o’rganadilar. [8.3]. Musiqiy asboblar ishtirokidagi ta’limiy faoliyatda, bolalar turli ohanglarni farqlashni o’rganadilar. Bolalar turli xil asboblardan taralayotgan tovush va tovushlar qanday o'zgarishini anglashni boshlaydilar. Musiqa ohangining tezligi va sokinligi tovush pardalarini baland va pastligiga mos ravishda xarakatlanadilar. Transport o'yinchoqlari bilan o'ynashda bolalar yuqoriga va pastga, oldinga va orqaga tez va sekin harakatlanib, ishqalanish va harakatlanish kuchini sinovdan o’tkazadilar Bolalar bloklar va kubiklar bilan o'ynaganda,ular rang, shakl va bezaklar, shuningdek og'irlik, o'lcham, balandlik, uzunlik, vertikal va gorizontal tushunchalarini o'rganadilar. Bolalarni muloqot qilishga rag’batlantiruvchi ta’limiy faoliyatlar Yosh bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari va harakatlari orqali o'rganishadi, shuning uchun ingliz tilini o'rganish ham ana shu xis tuyg’ular va xatti harakatlar orqali amalga oshirilishi kerak. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko’nikmalarini o’zlashtirish uchun juda muhim omil xisoblanadi. Faoliyat maqsadi ingliz tilini o’rgatish bo'lsa-da, u o’yin kabi bolalarni o’ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o’z ona tili kabi tabiiy tarzda o’zlashtirib borishligini ta’minlash ham alohida e’tiborga molik. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar xosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta’minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Vaziyat/ Ta’limiy faoliytlar Har qanday vaziyat va faoliyatlar zamirida ingliz tilini o’rgatish yotganligi tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda inlgiz tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ona tilidagi muloqotni qisqartirish va asosiy urg’uni ingliz tiliga berish kerak. Albatta murabbiyning harakati, imo ishorasi va ingliz tilida ravon nutqi va gaprish ohangi bilan bolani o’ziga jalb qila olishi til o’rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Xususan, til o’rgatuvchi murabbiylarning “Playing with blocks or legos” (bloklar yoki lego vositalari bilan o'ynash), “Dressing” (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), “Animals and their sounds” (hayvonot olami va ularning tovushlari bilan tanishish), “Crafts” (qo’l mehnati yordamida turli narsalar yasash), Sing a song (qo’shiq kuylash) [8.1] kabi ta’limiy faoliyat turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o’rganish ko’nikmalarini shaklantirishdagi maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so'z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashni kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniga ega bo’lamiz. “Playing with blocks or legos” Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan bloklar, kubiklar hamda lego o’yini orqali amalga oshirilganda o’zlashtirish natijasi yaxshiroq bo’lishi amaliyotda o’z isbotini topgan. Bloklar, kubiklar va lego o’yinchoqlarini o’ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o’yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug’at

Hayvonot	Qanday tovush beradi	Tarjima
Dogs	bark	It
Cats	mew, purr, meow, hiss, yowl	Mushuk,
Caws	moo, low	Sigir
Ducks	quack	O’rdak
Frogs	croak	Baqa
Bees	hum and buzz	Asalari
Lions	roar, growl	She’r
Chicks	cheep	Jo’ja
Flies	buzz, hum	Pashsha
Birds	chirrup, chirp, twitter, tweet, sing, whistle	Chumchuq
Wolves	howl, cry, yell	Bo’rilar

boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo’ladi. O’yinlarda so’z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko’rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o’yin orqali sanashni va tartiblashni o’rganadi: How many blocks are there? (u yerda nechta kubik bor?) Shall we put the blue ones here? (bu yerga ko’k kubikni qo’yamizmi?) Narsalar joylashuvini predloglar orqali o’rganadilar: in(ichida), on(ustida), under(ostida), below(pastda), behind(orqasida), next to(yonida). O’lchov birliklari haqida tushuncha ega bo’ladilar: big(katta), small(kichik), long(uzun), short(qisqa). Quyidagi so’zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko’rsatma beriladi: Find the the red block, please!(qizil kubikni toping!), Pull the blue one, please!(ko’k kubikni torting!), push them!(ularni suring!), Build the house, please!(uy quring!) make the car, pleaser! (mashina yasang!). Bola yasayotgan narsa va shakllarga ta’rif beriladi: square(kvadrat), rectangle(to’g’ri to’rtburchak), tower(minora), house(uy), castle(saroy), garden(bog’) “Dressing” ta’limiy faoliyat turi orqali bolalarga dunyo xalqlarning ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin. Ertak qahramonlarining obrazlarini bolalarga tanishtirilayotganda ularning kiyimlarini kiydirish va rol ijro etish ingliz tilida olib boriladi va bu faoliyat yordamida bolaning ingliz tili so’z boyligi ortadi va bola tasavvuri, dunyoqarashi kengayadi. Ushbu ta’limiy faoliyat orqali bolalar, inson tana a’zolariga hamda kiyim kechakka oid bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va amaliyotda qo’llash imkoniga ega bo’ladilar. Inson tana a’zolari: head(bosh), arms(qo’llar), hands(qo’llar), foot (feet)(oyoqlar), legs(oyoqlar), eyes(ko’zlar)… Kiyimlar: dress(qizlar ko’ylagi), shirt(og’il bolalar ko’ylagi), t-shirt(futbolka), shoes(poyafzal), slippers(shippaklar), cap(kepka), belt(kamar), gloves(qo’lqoplar) … Buyruq ham tana a’zolariga urg’u bergan xolda beriladi: put your arms through here (qo’lingizni shu yerga kiriting), tie this around your waist/wrist (belingizga taqing), put these on your feet (bularni oyog’ingizga kiying) — first your right foot (avval o’ng oyog’ingizdan boshlang), then your left foot (so’ng chap oyog’ingizga), put this over your head (boshingizga kiying). Shuningdek,

bolalar ertak qahramonlarini o’z tassavurida jonlantiradilar, obrazga kirishadilar hamda asosiy so’z va so’z iboralarni qo’llashni o’rganadilar. Bu albatta ingliz tilida so’zlarni tinglab tushunish va yod olingan so’zlardan jumlalar tuzish orqali gapirish mahoratini ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavjud qahramon kiyimlari tasvirlanadi (fairy (pari), princess (malika), pirate (qaroqchi), king (qirol), clown (masharaboz)) hamda kiyim kiyishga doir so’z iboralarini qo’llaniladi: put on (kiyining!), zip up (zamokni qadang!), do the buttons up (tugmalarni qadang!), unbutton (tugmalarni yeching), unzip (zamokni tushiring). “Animals and their sounds” ta’limiy faoliyat turi vositasida ingliz tilida hayvonot va hasharot olami tanishtiriladi. Bolalar hayvonlar ishtirok etgan turli qissa va hikoyalarni ham jon qulog’i bilan tinglaydilar. Hayvonlarning rangli surati tasvirlangan rasmlar orqali ingliz tilida hayvonlar va ularning harakatlari, tovushlari haqida o’rganish ham bolalar uchun zavqli bir masg’ulot hisoblanadi. Uy hayvonlari domestic animals : dog, cat, duck, cock, hen, chicken, cow … Yovvoyi hayvonlar wild animals : lion, tiger, wolf, rabbit, fox, snake, deer … Bolalarning ingliz tilida hayvon va hasharot nomlarini o’rganish va murabbiy bilan birga ularning haratlariga taqlid qilish bolaga olam-olam zavq bag’ishlaydi

“Crafts” Q’ol mehnati: narsalar yasash va bezak berish ta’limiy faoliyat turi. Bola tabiatan qiziquvchan ekanligi hammaga ma’lum ammo bolaning rivojlanish jarayoni bir paytda bir xil tarzda kechmasligini ham yodda tutish kerak. Ayrim bolalar ijtimoiy kelib chiqishi, tabiati va qiziqishidan kelib chiqqan xolda rivojlanish bosqichi qolganlarnikidan farq qilishi mumkin. Ba’zi bolalar sokin bo’ladilar ko’pchilikka tez qo’shilib keta olmaydilar ammo ular kuzatuvchan bo’lganligi tufayli ijodkorlik qobiliyati yaxshigina rivojlangan bo’ladi. Ana shunday bolalar qo’l mehnati vositasida narsalar yasash faoliyatiga jalb qilinsa ulardan shubhasiz haqiqiy san’at asar ixtirochilari yetishib chiqadi. Qo’l mehnati orqali bolalarga rang barang narsalar yasash o’rgatilganda, bolaning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi va bu faoliyat ingliz tilida olib borilganda ingliz tili lug’at boyligi oshadi va tinglab tushunish hamda gapirish mahorati ham rivojlanadi. Demak, bu ta’limiy faoliyat turi qo’g’oz parchalaridan shakllar yasash, bo’yoqlar yordamida shakllarga rang berish yoki plastilindan turli narsalar yasash bo’lishi mumkin. Har qanday jarayon ingliz tilidagi so’z va so’z iboralaridan xoli bo’lmasligi kerak. Har bir vosita va ashyo nomi bolalarga ingliz tilida yetkazilishi kerak: paint(bo’yoq), paintbrush(bo’yoq chyotkasi), crayon(qalam), marker(marker) card (karta), paper(qog’oz), crepe paper(krep qog’oz), shiny paper (yaltiroq qog’oz), tissue paper(to’qima qog’oz), newspaper (gazeta), glue(yelim), scissors (qaychi), cotton wool (paxta yungi), fabric (mato), feathers (patlar). Ko’rsatmalar ingliz tilida olib borilishi kerak: paint (boyamoq), draw(chizmoq), colour (rang bermoq), smudge(chaplamoq) blow(puflamoq), copy(ko’chirmoq), pour(quymoq), make(yasamoq), cut(kesmoq, qirmoq), stick (yopishtirmoq), decorate (bezamoq), hang (it) up (ilib qo’ymoq). Sing a song (birgalikda qo’shiq kuylash). Bolajonlaning eng yoqimli mashg’ulotlaridan biri. Bolalar yoshlikdan qo’shiq kuylashga moyil bo’ladilar va qo’shiq kuylash vositasida bolalar nafaqat so’z boyligini orttiradilar shu bilan birga ular so’zlarni ohangga solib aytishni o’rganadilar. Kichik yoshdagi bolalar orasida kuylanadigan inglizcha qo’shiqlarining eng ommabop turlaridan biri “ Rain, Rain go away” qo’shig’idir. Rain, rain, go away Come again another day Daddy wants to play Rain, rain go away… Ta’limiy o’yin soyabonlar, yasama bulut hamda sun’iy yong’ir vositasida amalga oshirilsa bolalajonlar faolligi oshadi natija samaradorligi ortadi

Bolalarning o’yindagi ishtirokini taxlil qilib borish.

Ta’limiy faoliyatda bolalarni faol qatnashishini ta’minlash, har bir bolaga aloxida e’tibor qaratish va bolani ushbu mashg’ulotda biror narsa o’rganish uchun rag’batlantirib borish lozim. Mashg’ulotga yutuqqa erishayotgan bolalarni ishi uchun maqtab qo’yish ham ulardagi rag’batni kuchaytiradi. Ammo psihologlarning fikricha maqtov shaxsga nisbatan emas balki qilingan ishiga nisbatan qaratilishi kerak deyiladi. Chunki agar maqtov shaxsga nisbatan berilsa bu bolani keyinchalik hudbinlikka yetaklab borishi mumkin ekan. Ishiga qaratilgan maqtov keyinchalik ham har qanday ishni sifatli va tez bo’lishini ta’minlaydi.

Xulosa.

Bolalarning maktabda qanday o‘qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jihatdan oila muxuti, mahalla e’tibori hamda maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog‘liq. Maqolada berilgan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 6 yoshgacha bo‘lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o‘rni nechog‘li muhimligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda maktabgacha ta'lim muassasalariga 5–6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Demak aynan bolalarning ilk yoshida organgan bilimi ajdodlarimiz aytganidek “toshga bititlishi ” bejis emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o’rgatish til ko’nikma va malakalarining oson o’zlashtirishiga sabab bo’lar ekan. Ayniqsa ushbu bilim, ko’nikma, malakalar turli o’yin va ta’limiy faoliyatlar orqlali singdirib borilsa, bola xoirijiy tilllarni o’z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta’limiy o’yinlar bolada nafaqat bilim ko’nikma, malakalarni shakllantiradi balki shu bilan birga u bolani jismonan sog’lom rivojlanishini ta’minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o’ziga bo’lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtmoiy munosabatlarni shakllantirishga katta ko’mak beradi. Mening fikrimcha, bolajonlarimizga mana shunday yo`nalishlarda dars o`tishimiz maqsadga muvofiq bo`lar edi: -qo`shiqlar va she`rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo`lgan, ma`noga ega bo`lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o`rgatish; -aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog`liq bo`lgan o`yinlar bilan o`rgatish; -multfilmlar orqali. Bolalar til o`rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so`zlarni tushunishga intiladi; -ko`rgazmali qurollar, turli xil rasmlar, ertaklar, kitoblar, va shunga o`xshash turli xil predmetlardan ham bo`lishi mumkin. Bilamizki bolalar qiziquvchan bo`ladi. Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o`tmaslik lozim. Aks holda bolalar o`qituvchining qanday dars o`tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko`rishadi. Usullarni yangilab dars o`tish bolalarning intilishlarini oshiradi. kichik yoshdagi bolalarga til o`rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg`ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o`tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo`lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Ilhomovna, N. F. (2023). A Healthy Child is a Guarantee of Family Joy and a Country Prospect. Scholastic: Journal of Natural and Medical Education, 2(2), 127-131.
2. Иноятова, Ф. И., Нурматова, Н. Ф., Абдумаджидова, Ш. У., Иногамова, Г. З., Ахмедова, А. Х., Валиева, Н. К., ... & Сабитова, В. И. (2012). Состояние микрофлоры кишечника у детей с хроническим гепатитом В и лямблиозом. *Детские инфекции*, *11*(1), 20-23.
3. Иноятова, Ф. И., Абдумаджидова, Ш. У., & Иногамова, Г. З. (2011). Роль лямблиозной инвазии в течении хронической вирусной патологии у детей. Совершенствование диагностики и лечения: Методические рекомендации. *Методические рекомендации*.
4. Иноятова, Ф. И., & Абдумаджидова, Ш. У. (2004). Дифференциально-диагностические информативные критерии хронического вирусного гепатита D у детей. *Врачебное дело.–С-Пб*, (8), 27-30.
5. Суранбаева, Г. С., & Тобокалова, С. Т. (2004). Клинико-иммунологические особенности течения гепатитов в и d у детей с кишечным дисбиозом. *Детские инфекции*, (1), 15-17.
6. Pulatova, K. S., Pulatov, T. M., & Esankulov, M. O. (2021). THE SPECIFIC FEATURES OF ARTERIAL HYPERTENSION IN OWERWEIGHT PATIENTS WITH PSORIASIS. *Academic research in educational sciences*, *2*(2), 1202-1207.
7. Dilshodovna, A. M., Odylovna, K. F., & Samveilovna, P. K. (2022). Peculiarities of Psychological Disorders in Patients with Acute Coronary Syndrome. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, *1*(6), 203-207.
8. Pulatova, K. S., Inoyatov, S. S., & Numonov, D. U. (2022). REDUCED SEXUAL DYSFUNCTION IN YOUNG ADULTS WITH OVERWEIGHT AND ARTERIAL HYPERTENSION. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *2*(1), 302-306.
9. Rubenovna, A. I., Samvelovna, P. K., Mamasolievna, J. N., & Shodiyor Shokiro'g'li, D. (2021). Features of Anti-Hipertension Therapy in Overweight Pations. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 278-283.
10. Tashkenbaeva, E. N., Pulatova, K. S., & Yorbulov, L. S. (2022). Evaluation of Echocardiography in Patients With Coronary Heart Disease Combined With Metabolic Syndrome. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, *3*(6), 194-197.
11. Ismoiljon O'g'li, T. N. (2022, October). MODERN MANAGEMENT SYSTEM IN LEADING AMERICAN COMPANIES. In *Archive of Conferences* (pp. 157-160).
12. Абдураззоков, Х., & Адилбекова, Д. (2022). Морфологическое состояние сосудисто-тканевых структур тонкой кишки при экспериментальном перитоните.
13. Bakhtierovna, A. D. (2016). A morphological state of vascular tissue structures of the small bowelin the generation born to mothers with chronic toxic hepatitis bin conditions of hepatitiscorrection. *European science review*, (9-10), 54-57.
14. Адилбекова, Д., & Маматова, Г. (2022). *Морфологическое состояние стенки тонкой кишки у потомства, рожденных в условиях сахарного диабета у матери* (Doctoral dissertation, tadqiqot. uz).
15. Nazarova, M. B., Adilbekova, D. B., Khatamov, A. I., Sharafutdinov, K. K., Sh, S. Z., & Babajanova, F. R. (2021). POSTNATAL MORPHOGENSIS OF GASTROINTESTINAL TRACT AND

LIVER OF OFFSPRING FROM MOTHERS WITH CHRONIC TOXIC HEPATITIS. *湖南大学学报 (自然科学版)*, *48*(10).

16. Адилбекова, Д. Б. (2017). Морфологические аспекты раннего постнатального становления органов желудочно-кишечного тракта и печени у потомство рожденного и вскормленного самками с хроническим токсическим гепатитом.
17. Исхакова, Ф. Ш., Хамракулова, Н. О., & Хушвакова, Н. Ж. (2018). Оценка эффективности лечения бактериального рецидивирующего синусита. *Прорывные научные исследования как двигатель науки, Сборник статей, Часть*, *2*.
18. Быстрова, О. В. (2011). Повышение эффективности лечения пациентов с хроническими верхнечелюстными синуситами, вызванными стоматологическими пломбировочными материалами. *Автореферат дис.. канд. мед. наук. М.: Первый МГМУ им. ИМ Сеченова*.
19. Хамракулова, Н. Ж., Хушвакова, Н. О., Давронова, Г. Б., & Камилов, Х. Б. (2012). Применение озона и местного антисептического раствора у больных с гнойным средним отитом на фоне хронического лейкоза. *Российская оториноларингология*, (1), 178-181.
20. Сафарова, Н., Хушвакова, Н., & Хамрокулова, Ф. (2014). Комплексное лечение больных с полипозным этмоидитом. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (1 (77)), 58-60.
21. Хамракулова, Н. О., Хушвакова, Н. Ж., & Дадажанов, У. Д. (2014). Цитологические особенности применения раствора Декасан и озонотерапии в лечении хронического экссудативного среднего отита при хроническом лейкозе. *Вестник Казахского Национального медицинского университета*, (2-3), 108-110.
22. Хамидов, Д. У., Хушвакова, Н. Ж., & Хамракулова, Н. О. (2020). Оптимизация лечения и прогнозирование патологических состояний носа у больных после уранопластики. *Достижения науки и образования*, (1 (55)), 37-40.
23. Хамидов, Д. У., Хушвакова, Н. Ж., & Хамракулова, Н. О. (2020). Оптимизация лечения и прогнозирование патологических состояний носа у больных после уранопластики. *Достижения науки и образования*, (1 (55)), 37-40.
24. Расулова, М., Муратов, Ф., Расулова, Д., Рахимбаева, Г., Насруллаев, Б., & Юнусова, М. (2021). Речевые расстройства при полушарных инсультах.
25. Расулова, М. Б., Расулова, Д. К., & Куранбаева, С. Р. (2020). Афазиялар тикланиш динамикасида логопедик машғулотлар ўрни.
26. Рахимбаева, Г. С., & Расулова, Д. К. (2020). Афазияли беморлар нутқини тиклаш учун ўзбек тилида биринчи миллий логос мобил иловаси. *Интернаука*, (5-2), 39-40.
27. Rasulova, M. B., Muratov, F. X., & Rasulova, D. K. (2022). NEUROIMAGING INDICATORS OF SPEECH DISORDERS IN THE PROGNOSIS OF APHASIA REHABILITATION. *British Medical Journal*, *2*(6).
28. Расулова, Д., Рахимбаева, Г., Расулова, М., Муратов, Ф., & Насруллаев, Б. (2021). Ишемик инсулт реабилитациясини башоратлашда нейровизуализация омиллари.
29. Расулова, Д., Рахимбаева, Г., Расулова, М., Муратов, Ф., & Насруллаев, Б. (2021). Ишемик инсулт реабилитациясини башоратлашда нейровизуализация омиллари.
30. Расулова, Д., Рахимбаева, Г., Расулова, М., Муратов, Ф., & Насруллаев, Б.

(2021). Ишемик инсулт реабилитациясини башоратлашда нейровизуализация омиллари.

31. Khamdamov, S. J., & Usmanov, A. (2022). New methodological recommendations for economic growth. *Архив научных исследований*, *2*(1).
32. Khamdamov, S. J. (2021, December). Calculating Share of Factors of Intensive Economic Growth in Uzbekistan. In *The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 393-397).

INTERNET MANBALARI

1. https://pdfs.semanticscholar.org/da57/911592a6cf37c6c13b0729a0cccdfeb729
2. https://link.springer.com/content/pdf/10.1186%2F2229-0443-1-4-120.pdf
3.https://eslflow.com/incredibly-useful-past-tense-teaching-activities.html
4. https://www.speechandlanguagekids.com/4-steps-to-teaching
5. https://www.usingenglish.com/articles/how-to-teach-past-simple-tense.html